



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASSTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH

Niyozov Zuxur Davronovich

i.f.n., professor v.b., "Bank ishi" kafedrası
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
BI-122-guruh talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining mahalla darajasida kambag'allikni qisqartirishga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda mikromoliyalashtirish, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kreditlari, "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari" va "Kambag'allikni qisqartirish reytingi" kabi davlat dasturlari doirasida banklar faoliyati o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, banklarning qishloq joylarga kreditlar yetkazib berishdagi ulushi oshgan sari oilalarning daromad darajasi va tadbirkorlik faolligi sezilarli darajada o'sadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, kambag'allikni qisqartirish, mahalla, mikroreditlash, moliyaviy inklyuziya, oilaviy tadbirkorlik, ijtimoiy himoya.

Abstract. This article examines the contribution of commercial banks to poverty reduction at the mahalla level in Uzbekistan. The study analyzes the role of banks within microfinance programs, family entrepreneurship support loans, and state programs such as the "Youth Notebook," "Women's Notebook," and the poverty reduction rating system. The findings indicate that as the share of bank credits directed to rural areas increases, household income levels and entrepreneurial activity rise significantly.

Keywords: commercial banks, poverty reduction, mahalla, microcredit, financial inclusion, family entrepreneurship, social protection.

Аннотация. В данной статье проанализировано влияние коммерческих банков на сокращение бедности на уровне махалли в Узбекистане. В исследовании изучена деятельность банков в рамках программ микрофинансирования, кредитов по поддержке семейного предпринимательства, а также государственных программ, таких как «Молодёжная тетрадь», «Женская тетрадь» и рейтинг сокращения бедности. Результаты показывают, что по мере увеличения доли банковских кредитов, направляемых в сельские районы, уровень доходов семей и предпринимательская активность заметно возрастают.

Ключевые слова: коммерческие банки, сокращение бедности, махалля, микрокредитование, финансовая инклюзия, семейное предпринимательство, социальная защита.

KIRISH

Kambag'allikni qisqartirish O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida [1] belgilangan vazifalar doirasida har bir mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlarini baholash va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda tijorat banklari muhim ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida faol ishtirok etadi, chunki aynan banklar orqali aholiga imtiyozli kreditlar, subsidiyalashtirilgan foiz stavkalari va lizing xizmatlari yetkazib beriladi. Mahalla institutining O'zbekistondagi o'ziga xos ahamiyati shundaki, u nafaqat ma'muriy birlik, balki aholi bilan davlat o'rtasidagi bevosita aloqa vositachisi hamdir. Tijorat banklari mahalla fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlikda ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni aniqlash, ularga moslashtirilgan kredit mahsulotlarini taklif qilish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklarining mahalla darajasida kambag'allikni qisqartirishga ko'rsatayotgan ta'sirini empirik tahlil qilish, ushbu jarayonda mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir.



Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- tijorat banklarining kambag'allikni qisqartirish dasturlaridagi rolini nazariy jihatdan asoslash;
- mahalla darajasidagi mikrokreditlash va oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlarining amaldagi holatini tahlil qilish;
- aniqlangan natijalar asosida amaliy tavsiyalar shakllantirish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, mahalla darajasidagi mikrostatistik ma'lumotlar asosida tijorat banklari kreditlarining kambag'allik darajasiga ta'siri korrelyatsion-regression tahlil yordamida birinchi marta baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kambag'allikni qisqartirishda moliyaviy inklyuziya va mikrokreditlash asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi klassik yondashuv M. Yunus (2003) tomonidan asoslangan bo'lib, uning "Banker to the Poor" konsepsiyasi garovsiz mikrokreditlar orqali aholini o'z-o'zini band qilish mexanizmini ko'rsatadi. Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki hisobotlarida ham aholining moliya-bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari kengayishi daromadlar tengsizligini kamaytirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. O'zbekistonda mazkur jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrda PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni [2] bilan huquqiy va strategik asosga ega bo'ldi. Ushbu farmonda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ishlarni mahalla darajasida tashkil etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Markaziy bankning 2021–2025-yillardagi yillik hisobotlari pul-kredit instrumentlarining ushbu yo'nalishdagi jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Joylarda ushbu strategiyani ijro etish ixtisoslashgan mahalliy tijorat banklari — Mikrokreditbank, Agrobank va Xalq banki muhim o'rin tutadi. Mazkur banklarning "Ijtimoiy mas'uliyat hisobotlari" ularning mahallabay tizimida hokim yordamchilari bilan hamkorlikda maqsadli kreditlar ajratish funksiyasini aks ettiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024–2025-yillar davomida Toshkent viloyatining uchta tumaniga qarashli 6 ta mahalla fuqarolar yig'ini hududida o'tkazildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat bo'ldi.

Tadqiqotda ikki turdagi ma'lumotlar manbalaridan foydalanildi: birlamchi ma'lumotlar tanlangan mahallalardagi 240 nafar kam ta'minlangan oila xo'jaligi rahbarlari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalaridan iborat bo'lib, anketa savollari daromad darajasi, bank kreditlaridan foydalanish tajribasi, kredit shartlari haqidagi xabardorlik kabi bloklardan tashkil topgan. Ikkilamchi ma'lumotlar Markaziy bank, mahalliy bank bo'limlari va mahalla fuqarolar yig'inlarining 2021–2025-yillardagi hisobot ma'lumotlari, jumladan, har bir mahalla bo'yicha ajratilgan kreditlar soni, hajmi va maqsadli yo'nalishlarini qamrab oladi.

Tadqiqotning asosiy cheklovi shundan iboratki, namuna hajmi 240 oila bilan cheklangan va faqat Samarqand viloyatining bir nechta mahallalarini qamrab oladi, shuning uchun natijalar butun mamlakat bo'yicha umumlashtirilganda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shuningdek, so'rovnoma natijalari respondentlarning subyektiv baholariga asoslangani uchun ba'zi javoblarda noaniqlik bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari tijorat banklari tomonidan mahalla darajasida amalga oshirilgan kredit dasturlarining kambag'allik ko'rsatkichlariga ta'sirini bir necha yo'nalishda ko'rsatdi.

So'rov natijalariga ko'ra, so'rovda qatnashgan 240 oiladan 142 tasi (59,2%) so'nggi ikki yil ichida kamida bir marta tijorat banki orqali subsidiyalashtirilgan kreditdan foydalangan. Qolgan 98 oila (40,8%) hali bank kreditidan foydalanmagan, ularning asosiy sabablari quyidagilar bo'lgan: garov ta'minoti yetishmasligi — 38%, kredit jarayoni haqida yetarli ma'lumotga ega emaslik — 29%, kredit olish borasidagi psixologik ehtiyotkorlik — 21% va boshqa sabablar — 12%.

Kredit olgan oilalarning o'rtacha oylik jon boshiga daromadi 1 480 000 so'mni tashkil etgan bo'lsa, kredit olmagan oilalarda bu ko'rsatkich 1 050 000 so'm darajasida bo'lgan. t-testi natijalari ushbu farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqladi ($t = 4,72$, $p < 0,001$). So'rovda qatnashgan kredit oluvchilarning 64 foizi "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi, 21 foizi "Yoshlar daftari", 9 foizi "Ayollar daftari" va qolgan 6 foizi boshqa maqsadli dasturlar doirasida kredit olgan. Eng yuqori qaytarish darajasi (98,2%) "Oilaviy tadbirkorlik" dasturi bo'yicha qayd etilgan, bu esa ushbu dastur doirasidagi loyihalarning nisbatan barqaror daromad keltirishini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari tijorat banklarining mahalla darajasida kambag'allikni qisqartirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Bank kreditlariga ega bo'lgan oilalarning daromad darajasi kredit olmagan oilalarnikiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan, shu bilan birga kredit hajmi bilan daromad o'sishi o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik aniqlandi.

Shu bilan birga, kambag'al oilalarning bank kreditlaridan foydalanishida bir qator to'siqlar — garov ta'minoti yetishmasligi, ma'lumot va moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi mavjudligi aniqlandi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun tijorat banklari, mahalla fuqarolar yig'inlari va davlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, kafillik mexanizmlarini takomillashtirish va aholi orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha tizimli ishlarni davom ettirish zarur.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarining mahalla darajasidagi faoliyati nafaqat moliyaviy xizmat ko'rsatish, balki ijtimoiy mas'uliyat va davlat siyosatini amalga oshirishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish O'zbekistonda kambag'allik darajasini qisqartirish bo'yicha belgilangan strategik maqsadlarga erishishda muhim hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-son "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-7131782>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-son "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5758155>
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Markaziy bankning 2024-yil uchun yillik hisoboti. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2025.
4. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Financial Sector Assessment Program — Financial System Stability Assessment. IMF Country Report No. 25/145. — Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2025.
5. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. The Global Findex Database 2021: Financial Inclusion, Digital Payments, and Resilience in the Age of COVID-19. — Washington, D.C.: World Bank, 2022.
6. Yunus, M., Jolis, A. Banker to the Poor: Micro-Lending and the Battle Against World Poverty. — New York: PublicAffairs, 2003.
7. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki. 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobot. — Toshkent: "Mikrokreditbank" ATB, 2025.
8. "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki. 2024-yil uchun yillik hisobot. — Toshkent: "Agrobank" ATB, 2025.
9. Aksiyadorlik tijorat Xalq banki. 2024-yil uchun yillik hisobot. — Toshkent: AT "Xalq banki", 2025.
10. Muallif tomonidan 2024–2025-yillarda o'tkazilgan so'rovnoma natijalari asosida shakllantirilgan birlamchi ma'lumotlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>